

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIGA BIR NAZAR

Jumaniyazova Muxabbat Boltayevna

Xorazm viloyati Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining taniqli ijodkori - tong kuychisi, zabardast shoir, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she'riyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Erkin Vohidov, lirik shoir, she'r, shoirlik, tong kuychisi, hajviya, yumor, „Yoshligim“, ”She'r haqida she'r“, ”Vatan istagi“, ”Donish qilshloq latifalari“, Matmusa, “Matmusaning mehmondo'stligi“, ”Matmusaning eshak sotgani“.

”Erkin Vohidov badiiy adabiyot daholari ruhini shod etgan, yangi o'zbek adabiyoti darg'alari duosini olgan, o'z xalqi qalbiga chuqur kirib borgan san'atkordir. Bunday shoir hech qachon zavol ko'rmaydi“.

Abdug'afur Rasulov,
adabiyotshunos

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodi o'zbek kitobxonlarini, ayniqsa, she'riyat ixlosmandlarini befarq qoldirmasligi, tabiiy. Publitsist, dramaturg, dostonnavis, tarjimon sifatida barakali ijod qilgan bo'lsa-da, avvalo, u lirik shoir sifatida adabiyotga kirib kelgan. Uning nafis, ham falsafiy, ham didaktik mazmun kasb etgan she'rlari xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. O'zbek kitobxonlari o'quvchilik davridayoq shoir asarlarining o'zgacha bir ta'sir kuchini anglaydi, sevib mutolaa qiladi va hatto ko'plab she'rlarini yod oladi, ular ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, ma'naviy olami yuksaladi. Erkin Vohidov ijodi bahs-munozaralar ichida kechdi. Shoir o'z qo'lidagi qurol, ya'ni she'r, uning tabiati, shoirning el-yurt oldidagi burchi - vazifasi xususida ko'p o'yladi, she'r va shoir haqidagi qarashlarini bayon etdi.

U bular xususida soʻz ochganda har doim ijod mashaqqatlarini, shoir boʻlish oson emasligini eslatadi. Uning fikricha, shoirlilik oʻz ona yurtiga, xalqiga, inson zotiga boʻlgan fidoyi mehnatning samarasidir. Bu daqiqalarni shoir hazil tariqasida yozilgan ”She’r haqida she’r“da shunday ta’riflaydi:

She’rim, mana, bitding nihoyat,
Tunim uygʻoq oʻtdi qoshingda.
Bitding dedim, sevinma faqat,
Qancha ish bor hali boshingda.
Hali seni yoʻnib, tarashlab,
Yuz martalab oʻchirmogʻim bor.
Qayta-qayta gʻijimlab tashlab,
Takror-takror koʻchirmogʻim bor.

Shoir dastlab hayot, goʻzallik, yoshlik, muhabbat, tong kuychisi boʻlib maydonga chiqdi. Taqdir inʼom etgan hayot, saodat, yoshlik, muhabbat sururini, hayotdan shod ekanligini toʻlib-toshib kuyladi. Xalqimiz erishgan yutuqlar, uning shonli tarixi, qoʻlga kiritgan gʻalabalari toʻgʻrisida faxr-iftixorga toʻla satrlar bitdi. Jumladan, „Yoshligim“ gʻazalida yoshlik sururidan joʻshib shunday yozadi:

Yoshligim, kel, kuyga toʻlgan
Qalbim oltin sozi boʻl
Men qoʻshiq aytay toʻlib,
Bir lahza joʻr ovozi boʻl.

Bora-bora shoir ijodida oʻshanday romantik joʻshqinlik, hayotsevarlik tuygʻulari yoniga jiddiy realistik mushohadakorlik kelib qoʻshila boshladi. Shoir hayotni nuqul madh etish bilan chekinmay, uning tub mohiyatiga, ichki ziddiyatlariga ham nigoh tashlaydi. Shoir adabiyotdagi oʻrinsiz madhiyabozlikni, oʻzining shu ruhdagi satrlarini ham nazarda tutib ”Vatan istagi“ she’rida shunday deydi:

Bas, yetar, yolgʻon saodat,
Yolgʻon erk, yolgʻon Vatan!
Hurriyat zavqini chin

Surmoqni istaydir ko'ngil.

Erkin Vohidovning yetuk asarlari yolg'ondan begonaligi, shafqatsiz haqiqati, rostgo'yligi va samimiyligi bilan hozirgi jahon taraqqiyparvar adabiyotining eng yaxshi namunalariga hamohangdir. She'riyat olamiga chuqur kirib borgan shoir she'rlarining o'z hayotida tutgan o'rni haqida shunday yozadi:

Hayot ichra hayot bo'lding,

Qanot bo'lding, najot bo'lding.

Keturding ham safo menga,

Yeturding ham jafo menga.

Shuni alohida e'tirof etish lozimki, hech bir o'zbek kitobxonni Erkin Vohidov she'rlarini e'tibordan chetda qoldirmagan, albatta. Shoir she'rlarini qo'lga olganda, to'lqinlanmaslikning, hayajonga tushmaslikning hech bir iloji yo'q. "Insoniyat tarixi", "O'lmas edi balki odamzod", "O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa" singari she'rlari, "Ruhlar isyoni" "Nido" kabi dostonlari, "Inson", "O'zbekim" qasidalarini, "Istambul fojiasi" dramasi, "Oltin devor" komediyasi va boshqa shu kabi ko'plab asarlari bu jihatdan fikrimiz isboti bo'la oladi. Ayniqsa, shoirning hajviy asarlarini o'qigan kitobxon kulgidan o'zini hech tiya olmaydi. Ehtimol, bu shoirning hajv borasidagi kuchli mahoratidandir yoki kitobxon bu asarlarni o'qiganda zamirida yotgan achchiq haqiqat: dard-u hasratni, iztirobni anglay olmaganini, his qila bilmaganidir. Shoirning o'zi esa bu haqda: *"Donish qishloq latifalari"ni o'qib, hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig'lab yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirib yotgani sir emas-ku. Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tutgan qolavergan, bir xil ohangni qo'ymay chala bergan matmusalar ozmi? O'zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib, yo'lni ko'rolmay, osmonga qarab ketayotgan hollarimiz yo'qmi? Bular kulgili ishlarmas, achinarli, ofatli hodisalar"*, - degan.

Xalqimizning taniqli hajvchi ijodkori Ne'mat Aminov: *"Mahorat baribir birlamchi. Erkin Vohidov hajviyotini ming-minglab kitobxonlarga suyuqli qilib turgan narsa aynan o'sha - mohirlik. Hajvchi, birinchi galda, qoyillatib kuldira olsin, o'ylantira olsa, undan ham yaxshi"*, - deya juda to'g'ri aytgan. Jahondagi ko'pchilik

kulgi ustalari kabi Erkin Vohidov ham shu aqidaga tayanib ijod qiladi. Bu, ayniqsa, shoirning hajviy qahramoni bo‘lmish Matmusa haqidagi turkum she’rlarida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ushbu she’rlari o‘rin olgan ”Donish qishloq latifalari“ turkumi o‘zining dolzarbligi, yumorga boyligi bilan e’tiborga molikdir. Xususan, shoir “Matmusaning mehmondo‘stligi“da ba’zi bir insonlarning zamondan orqada qolganini, madaniyat sohasidagi yangilanish, o‘zgarishlardan ancha yiroqda ekanini kulgi ostiga yashirgan holda berishga harakat qilgan:

”Shaharlik shaharlik“da
Der Matmusa ko‘nglida,
Kerakli arqonini
Olib yurar bo‘ynida.

O‘xshatib kuldirishni uddalagan shoir, zarurat tug‘ilganda, ”jizillatib chaqish“ni ham joyiga qo‘ya oladi. Bunga amin bo‘lish uchun ”Matmusaning uylanishi“ni yoki ba’zi bir insonlarning arzon mol ketidan quvib, ba’zan kuyib qolishlari mumkinligini anglash uchun ”Matmusaning eshak sotganini“ni o‘qish kifoya:

Matmusa javob aytar:
Senga eshak sotganman.
Hushyor bo‘l deb tayinlab
Odammas, deb aytganman.
Endi qolma yo‘lingdan,
Men bilan gap talashma,
Arzon deb bir adashding,
Boshqa sira adashma.

Xullas, xalqona syujet va yumor asosiga qurilgan ”Donish qishloq latifalari“ turkumi kirgan har bir she’rida og‘riq nuqtalarimiz bo‘lgan jiddiy muammolar tilga olinadi va keskin tanqid qilinadi. Bular shuni ko‘rsatib turibdiki, shoir o‘zining bebaho lirikasi, sahna asarlari, shuningdek, qator hajviy she’rlari bilan kitobxon qalbini zabt etdi va o‘zining yumorga boy asarlari bilan jamiyatdagi ayrim illatlarga qarshi faol kurashdi. Shoirning qaysiki asarini olmaylik, u , albatta, kitobxonga o‘zining hayotiy sabog‘ini

beradi. Shu bois, har bir kitobxon Erkin Vohidov ijodidan bahramand bo‘lishga intilsa, va, ayniqsa, maktab darsliklarida shoir ijodini o‘rganishga yanada kengroq o‘rin berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saylanma. Umrin daryosi. III jild. Erkin Vohidov. Toshkent, ”Sharq“ nashriyot matbaa. 2001-yil.
2. Adabiyot. 11-sinf. Darslik. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2018
3. Erkin Vohidov ”Tabassum“. 2017-yil.